



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

2024-yil 20-avgust, seshanba,
96 (23.973)-son

**KUN
HIKMATI**

Minnatga
ishora ham
savob ishni
yo‘qqa
chiqaradi

Zarafshon



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



BIZ BIR BO‘LSAK – YAGONA XALQMIZ, BIRLASHSAK – VATANMIZ!

20-avgust – Tadbirkorlar kuni

Tashabbus qo‘llab – quvvatlanadi

takliflar ko‘rib chiqiladi

Prezidentimiz tashabbusi bilan 20-avgust tadbirkorlar kuni sifatida belgilangan. Shu kuni davlat rahbari ishbilarmonlar bilan uchrashuv o‘tkazishi ham an‘anaga aylandi. Ushbu tadbir oldidan yangi ish o‘rni, xizmat va mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilayotganlarning tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanib, takliflar alohida e‘tibor bilan ko‘rib chiqilmoqda.



Xususan, Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasida tadbirkorlar murojaatlarini muvofiqlashtirish shtabi tashkil etilgan. 2024-yilning 19-avgust holatiga shtabga 1000 ga yaqin murojaat bo‘lgan. Ularning 817 tasi ko‘rib chiqilgan va 605 tasi ijobiy hal etilgan. 179 ta murojaat mutaxassislar tomonidan o‘rganilmoqda.

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan bu galgi muloqotida viloyatning 16 nafar ishbilarmonlari markaziy studiyadan ishtirok etadi. Ular orasida ko‘p yillik tajribaga ega korxona rahbarlari, yoshlar bilan birga “JC Finance Interconnect Holdings” savdo va logistika kompaniyasidan xitoylik Wu Tigyi, “Alihan Organic Agro LLC” mas‘uliyati cheklangan jamiyati ta‘sischisi, turkiyalik Baklan Ali ham bor.

Yaratib berilayotgan sharoit va respublikamizda investitsion muhit yaxshilanganligi, kredit mablag‘lari jalb qilishdagi yengilliklardan ilhomlanib, Bulung‘ur tumanidan 1029 gektar lalmi yer olib, yomg‘irlatib va tomchilatib sug‘orish orqali qishloq ho‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni yo‘lga qo‘yganimiz, - deydi “Metin Group Impeks” mas‘uliyati cheklangan jamiyat tasischisi Ravshan Karimov. - Shu lalmi yerning bir chetida yillik qishloq to‘nna ho‘l meva-sabzavotni quritadigan hamda Yevropa standarti bo‘yicha saralaydigan va qadoqlaydigan liniyalarni ishga tushirganimiz.

Joriy yilda 295 gektar lalmi yer maydonida tomchilatib sug‘orish tizimini joriy etgan holda intensiv bog‘ barpo etdik hamda plastmasa ishlab chiqarish liniyasini ishga tushirdik.

Darvoqe, jamiyat meva-sabzavot, dukkakli, boshqali va poliz ekinlarini yetishtirish, saqlash, quritish va muzlatish bilan birga, qadoqlab ichki va tashqi bozorlarga sotish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Asosiysi bu yerda 100 ta ish o‘rni yaratilgan. Biroq yana o‘shish va o‘zgarish qilish uchun bir muammo bilan yuzma-yuz kelmoqda.

- Korxonamiz tomonidan quri-

Y.MARQAYEV.

26-30-avgust kunlari bo‘ladigan “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivaliga tayyorgarlik va ochilish marosimi repetitsiya jarayonlari qizg‘in davom etyapti.

Registon maydonida yurtimizning taniqli rejissyor, aktyor va san‘at ustalari tomonidan ochilish marosimi dasturi tayyorlanmoqda.

- Pandemiya sababli bir necha yil to‘xtab qolgan mazkur festivalni ko‘pchilik sog‘ingan edi, - deydi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Uchqun Tillayev. - Mana, xalqaro san‘at bayrami yana hamisha navqiron va ko‘hna kentga qaytdi. O‘zim Sharq taronalarining X, XI, XII festivallarida boshlovchilik qilganman. Bu yil esa tadbirning ochilish marosimida tarixiy shaxslarning siymosini yaratishda ishtirok etaman. Tayyorgarlik jarayonlariga jalb etilgan taniqli san‘atkorlar, aktyor va boshqa ishtirokchilar bilan birgalikda ishlayapmiz. Bu yilgi festivalda ham yurtimiz tarixi, madaniyati va san‘atini dunyoga namoyish etamiz.

Festival bosh rejissyori Shamsiddin Usmonovning ta’kidlashicha, festivalning ochilish marosimini yuqori darajada o‘tkazish maqsadida 650 nafardan ziyod ishtirokchi tayyorgarlik jarayonlarida qatnashmoqda.



“SHARQ TARONALARI” ga
tayyorgarlik qizg‘in



Tadbirkorlar safi kengaymoqda

Ma’lumotlarga ko‘ra, joriy yilning birinchi yarmida viloyatimizda 156 ming aholi “2 million aholini biznesga jalb qilish dasturi” doirasida biznesga jalb etildi.

Jumladan, 126,6 ming kishi o‘zini-o‘zi band qilgan fuqaro sifatida ish boshlagan bo‘lsa, 11,9 ming nafari yakka tartibdagi tadbirkor, 4,7 ming nafari tadbirkorlik subyekti, 4,7 ming nafari dehqon xo‘jaligi tashkil etgan holda faoliyat yuritmoqda.

Olti oy davomida 2,8 mingta xizmat va servis obyekti ishga tushirilib, 83,4 ming aholi bandligi ta’minlandi.

1108 ta yer uchastkasi K-savdoga chiqarilib, shundan 548 tasi tadbirkorlik maqsadlarida sotildi. 3203 ta (713,8 gektar) noqishloq yer uchastkalari tadbirkorlik uchun аукsionga chiqarildi va 279 tasi (207 gektar) sotildi.

Viloyat bo‘yicha 43,1 gektar yer maydonida 16 ta “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalar”i tashkil etildi.



TAYINLOV

Jo‘rayev Baxtiyor Muqimovich –
Samarqand viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi boshlig‘i lavozimiga,

Xushvaqov Dilshod Murodullayevich –
mazkur boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari lavozimiga tayinlandi.

2024-2025-o‘quv yilida viloyatda 86415 nafar bola 1-sinfga qabul qilinishi bo‘yicha birlamchi prognoz ro‘yxati shakllantirilgan bo‘lib, 18-avgust holatiga 78621 nafar bola belgilangan tartibda umumiy o‘rta ta’lim maktablariga qabul qilindi.

Prezident sovg‘asi yetkazildi



Joriy yilning 19-avgustiga qadar 1-sinfga qabul qilingan va vazirlikning elektron tizimi (adm.maktab.uz)ga kiritilgan bolalar soni bo‘yicha 12 nomdagi o‘quv qurollaridan iborat Prezident sovg‘alari Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlaridan tashqari barcha tumanlarga yetkazildi.

Yangi o‘quv yilida 1-sinf bolalariga bepul beriladigan Prezident sovg‘asida mak-

tab sumkasi, 6 ta 12 varaqli katakchali daftar, 6 ta 12 varaqli chiziqli daftar, rangli qalam jamlanmasi (12 xil rang), ruchka, 2 ta oddiy qora qalam, rasm daftar (12 varaqli), rangli qog‘oz, plastilin, 2 ta o‘chirg‘ich, kley va qalamdon mavjud.

Nizomiddin ODILOV,
viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi shu‘ba rahbari.



**20-AVGUSTdan 1 USD – 12 640,93 so‘m (–17,07),
1 EUR – 13 949,27 so‘m (+38,13), 1 RUB – 141,14 so‘m (–1,07) etib belgilandi.**

Iqtisodiyotning rivojlanishi, ishsizlikni qisqartirish, aholi real daromadlarini oshirish ko'p jihatdan tijorat banklarining faoliyati, ular tomonidan ajratiladigan kreditlarga bog'liq. Keyingi paytlarda bank sohasida katta islohotlar qilindi va bu jarayon hamon davom etmoqda. Respublikamiz bank sektoriga xalqaro mutaxassislar-ni jalb etish, kredit foizlarini pasaytirish, imtiyozli kreditlar ajratish, tijorat banklarini xususiy lashtirish borasida muayyan ishlar boshlandi. Umuman, bank sektoridagi o'zgarishlar, yangiliklardan xabardor bo'lish maqsadida Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi bo'lim boshlig'i Ixtiyor Ergashevga bir nechta savollar bilan murojaat qildik.

- Bugungi kunda foizlari katta bo'lishiga qaramasdan, kreditga talab juda yuqoriligi qolmoqda. Kreditga talabning yuqoriligi ehtiyojdanmi yoki majburiyatdan?

- Keyingi yillarda iqtisodiyotdagi erkinlashish jarayonlari, moliyaviy xizmatlarning ommabopligi ortishi hisobiga kredit qo'yilmalarida yuqori o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Tijorat banklarining avtokreditlar va mikroqarzarlar ajratish faolligining keskin ortishi hisobiga chakana kreditlarning yillik o'sish sur'atida tezlashish kuzatilmoqda. O'sib borayotgan talab va turmush darajasining yaxshilanishi iste'molchilarning ipoteka va iste'mol kreditlariga bo'lgan talabining o'sishiga xizmat qilmoqda.

Misol uchun, viloyatda jismoniy va yuridik shaxslarga 2023-yilda ajratilgan kreditlar 2022-yilga nisbatan yillik 32 foizga oshib, iste'mol talabini qo'llab-quvvatlovchi drayverga aylandi.

Aholi va tadbirkorlarning ehtiyojidan kelib chiqib, tijorat banklari tomonidan 2023-yilda barcha moliyalashtirish mabvalari hisobidan 12,8 trillion so'mga yaqin kredit mablag'lari ajratilgan. Shundan qariyb 6,7 trillion so'mi yuridik shaxslarning loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun hamda 6,1 trillion so'mi jismoniy shaxslarning kreditga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun yo'naltirildi. Aholiga ajratilgan kreditlarning 39 foizi iste'mol va avtokreditlar, 22 foizi mikroqarz, 20 foizi uy-joy ipoteka kreditlari hisoblanadi.

Shuningdek, kreditlarning yuqori sur'atlarda o'sib borishiga import tovarlari uchun tijorat banklari tomonidan iste'mol kreditlari ajratish amaliyoti joriy qilindi, rasmiy daromadga ega bo'lmagan jismoniy shaxslarga kreditlar ajratish amaliyotlari yo'lga qo'yilganligi ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi.

- Respublikamizga xalqaro konsultantlarni jalb qilgan holda sanoatning elektrotexnika, to'qimachilik, qurilish materiallari, polimer-kimyoviy, oziq-ovqat, charm-poyabzal, mashinasozlik, zargarlik, mebelsozlik kabi ichki bozordagi import ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish loyiha qilingandi. Bunda sohalarga zamonaviy uskunalar bo'lishi, tumanlar toifasidan kelib chiqib afzalliklar berilishi belgilangandi. Bu bo'yicha viloyatimizda qanday loyihalar uchun kreditlar ajratildi?

- Prezidentimizning qaror va farmonlarida sanoatning ushbu yo'nalishlarida tadbirkorlarga keng yengillik va imtiyozlar joriy qilinmoqda hamda import o'rini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishlari uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.

Jumladan, tijorat banklari tomonidan sanoatning ushbu yo'nalishlarida tadbirkorlarning biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2022-yildan buyon 3,1 trillion so'mdan ziyod (2024-yilning besh oyida 330 milliard so'm) kredit mablag'lari ajratilgan. Ushbu kreditlarning 591 milliard so'mi to'qimachilik, 105 milliard so'mi elektrotexnika, 1340 milliard so'mi qurilish materiallari, 46 milliard so'mi mebelsozlik, 11 milliard so'mi mashinasozlik, 30 milliard so'mi kimyo-poyabzal, 172 milliard so'mi polimer-kimyoviy, 820 milliard so'mi oziq-ovqat hamda 8 milliard so'mi zargarlik sohasiga yo'naltirilgan.

- Banklarda resurs yo'qligi tufayli kredit foizlari yuqoriligi qolmoqda, degan tushuncha mavjud. Bu qanchalik asosli. Umuman, kredit foizlarini pasaytirish borasida qanday choralar belgilangan?

- Tijorat banklarida kredit foizlarini pasaytirish bevosita jalb qilinadigan resurs mablag'lari hamda Markaziy bankning asosiy stavkasi bilan bog'liqligini inobatga olgan holda keyingi 2 yilda asosiy stavka 17 foizdan 14 foizga pasaytirildi. Shuningdek, keyingi yillarda mamlakatimiz investitsion muhitini yanada yaxshilash va aholini ijtimoiy-iqtisodiy himoya qilish maqsadida xorijiy yirik banklar hamda jamg'armalardan resurs mablag'lari jalb qilinishi evaziga ham kredit qo'yilmalar miqdori sezilarli darajada oshdi.

Kelgusi yillarda inflyatsiya darajasining

KREDIT

ehtiyojni belgilaydi(mi?)



pasayib borishi bilan Markaziy bankning asosiy stavkasi va unga mos ravishda kreditlar bo'yicha foiz stavkalarining ham pasayishi kutilmoqda. Bu esa o'z navbatida, tadbirkorlik subyektlarining biznes loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatini yaxshilaydi.

- Muammoli kreditlar resurslarning kattagina qismini tashkil etadi. Bank tizimida kredit ajratish, kafillik miqdori yuqori bo'lishiga qaramasdan, muammoli kreditlarning ulushi yuqoriligi qolmoqda.

- O'zbekiston Respublikasida bank faoliyati eng tez rivojlanib borayotgan tizimlardan biri bo'lib, ayni kunda iqtisodiyotning qon tomiri sifatida qaraladigan ushbu yo'nalishning barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun hukumat darajasida barcha zaruriy choralar ko'rilmogda. Banklarning likvidlik darajasini yanada oshirish uchun sharoit yaratilmoqda. Ammo tez sur'atlarda o'sish va kredit qo'yilmalarining ortib borishi aktivlar sifati, jumladan, muammoli kreditlar salmog'ining ortib borish xatarini keltirib chiqarib, muammoli kreditlar bilan ishlash usullarini takomillashtirish masalasini dolzarb qilib qo'ydi.

Iqtisodiyotda real sektor korxonalari va aholini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror faoliyat yuritishi va qo'shimcha ishchi o'rinlari yaratish uchun bank kreditlarining o'rni katta. Biroq yangi kreditlar ajratilishi va foiz stavkalarining pasayishi o'z-o'zidan oldingi kreditlarning o'z vaqtida so'ndirilishi bilan bog'liq. Bu muammoli kreditlarning undirilishini ta'minlash, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalaridan keng foydalangan holda takomillashtirish yo'llarini topishni taqozo etadi. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2024-yil 1-yanvar holatiga viloyatimizda tijorat banklarining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 488 milliard so'mlik muammoli kreditlari bar-taraf etilib, 728 milliard so'm yoki jami kredit qo'yilmalaridagi ulushi 0,5 bandga kamayib, 2,8 foiz (2023-yil 1-yanvar holatiga 3,3 foizni tashkil etgan) tushishiga erishildi.

Bugungi kunda muammoli kreditlarni undirishda tijorat banklari tomonidan Savdo-sanoat palatasi orqali sudga da'vo arizalari kiritiladi. Sudning hal qiluv qarori chiqib, qarz oluvchiga berilgan qo'shimcha muddatlardan so'ng ijro hujjatlari Majburiy ijro byurolariga ijro uchun o'tkaziladi hamda garov mulki "E-auksion" savdolariga chiqarish orqali sotiladi. Garov mulklarining realizatsiya qilinishi uzoq muddat talab etib, tijorat banklarida muammoli kreditlarning vaqt saqlanib qolishiga sabab bo'ladi. Shu bois Prezidentimizning 2023-yil 29-apreldagi "Kreditlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, undiruv garovga qo'yilgan mol-mulkka suddan tashqari tartibda qaratilganda garov obyektini kreditorning va (yoki) qarzдорning buyurtmasi asosida "E-auksion" elektron savdo platformasida auksionga qo'yish amaliyotini keng joriy etish zarur. Bu esa o'z navbatida muammoli kreditlarning undiruv muddatini qisqartirib, qarzдорlarni sudga to'lanishi lozim bo'lgan davlat bo'ylaridan ozod etadi. Sud hujjatlari undiruv bo'yicha to'lanadigan to'lovlar (MIB-ga ijro yig'imi sifatida to'lanadigan to'lovlarga zarurat qolmaydi), tadbirkorlarning yuridik xizmatlar va sudlar bilan bog'liq xarajatlari hamda sarsongarchiliklarining oldi olinadi hamda kelgusida kreditlash imkoniyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda xorijiy mamlakatlar tajribasida kollektorlik xizmati ham jadral rivojlanib bormoqda. Kollektorlik xizmati - qarz oluvchilardan banklar va mikromoliya tashkilotlari oldidagi qarzlarini undiruvchi shaxslar bo'lib, ma'lum ulush evaziga (qarzдорlikdan foiz) undiruv bilan shug'ullanuvchi, qonunchilik asosida faoliyat ko'rsatuvchi shaxslar. Misol uchun, Amerika Qo'shma Shtatlarida kollektorlik xizmatlari (Debt collector) 2021-yil 30-noyabrdan qonuniy kuchga kirgan bo'lib, amaliyotda ijobiy natija bermoqda.

Mazkur yo'nalishni mamlakatimiz tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlarida joriy etish kreditlar qaytimini jadallashtiradi, muammoli kreditlar undiruvini to'liq qamrab olish imkonini beradi hamda qaytgan resurslarni qayta yo'naltirish tendensiyasini tezlashtirishga xizmat qiladi.

- Iqtisodchilar imtiyozli kredit bo'lmasa, kredit ajratish tartibga tushadi, degan fikrni bildirishadi. Umuman, qaysi sohalarga imtiyozli kreditlar ajratilmoqda va buning samarasi qanday bo'lmoqda?

- Keyingi yillarda iqtisodiyotdagi pul mas-sasi oshishining asosiy qismi kredit kanali hissasiga to'g'ri kelganligi bois uning o'zgarishi ichki bozordagi narxlar darajasiga o'zining ta'sirini ko'rsatdi. Bunday holatlarda Markaziy bank tijorat banklariga nisbatan prudensial nazorat talablarini kuchaytirish va pul-kredit siyosatining instrumentlaridan oqilona foydalanish asosida milliy valyutadagi kredit va depozitlarning jozibadorligini oshirish siyosatini faol olib borishni ko'zda tutmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining 2024-yil va 2025-2026-yillarga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlarida pul-kredit siyosati ta'sirchanligini oshirish bo'yicha ham tizimli ishlar rejalashtirilgan. Xususan, bank tizimida dollarlashuv darajasini pasaytirish, imtiyozli kreditlash amaliyotini bosqichma-bosqich qisqartirish va bozor tamoyillari asosida shakllanuvchi foiz stavkalariga o'tish borasida muhim choralar davom ettirilishi ko'zda tutilgan. Bugungi kunda aholi va tadbirkorlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash hamda yangi ish o'rinlari yaratilishini ta'minlash dolzarb masala ekanligini inobatga olgan holda tijorat banklari tomonidan bir qancha yo'nalishlarda imtiyozli kredit mablag'lari ajratilmoqda.

Misol uchun, joriy yilda oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 13 mingta loyihaga 218,3 milliard so'm, "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi doirasida (PQ-306) 1,8 mingta loyihaga 154,8 milliard so'm va "Biznesga birinchi qadam" dasturi doirasida (PQ-7) 8,1 ming mijozga 54,9 milliard so'm kredit mablag'lari ajratildi.

- Banklarni xususiy lashtirish: jarayon, rejalar, natija va afzallik?

- 2020-yil 12-mayda Prezidentimizning "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan. Mazkur farmon talablari asosida xalqaro moliya institutlari ko'magida "Ipoteka-bank" ATIB, "O'zsanoatqurilishbank" ATB, "Asakabank" ATB, AT "Aloqabank", "Qishloq qurilish bank" ATB va "Turonbank" ATBdagi davlat ulushlari bosqichma-bosqich xususiy lashtiriladi. Bunda birinchi bosqichda ularni institutsional o'zgartirishni (faoliyatini transformatsiya qilish), ikkinchi bosqichda esa davlat aksiyalari paketini sotish nazarda tutilgan.

Prezidentimizning 2023-yil 31-iyuldagi qaroriga asosan, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot bankini jalb qilgan holda 2024-yil yakuniga qadar "O'zsanoatqurilishbank" ATB va 2025-yil yakuniga qadar "Asakabank" ATBning davlat ulushlari xususiy lashtirilishi belgilangan. Bugungi kunga qadar "O'zagroeksportbank" 2023-yil yanvar oyida "Support Level" kompaniyasi tomonidan xususiy lashtirildi.

2022-yil 12-dekabrda Vengriya OTP Bank grup tomonidan O'zbekiston "Ipoteka-bank" aksiyadorlik tijorat ipoteka bankini sotib olish bo'yicha shartnoma imzolangan. 2023-yil 13-iyunda bankni sotib olishning birinchi bosqichi yakunlandi va OTP Bank Grup Ipoteka bankning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirliklariga tegishli aksiyalaridan 73,71 foizini sotib oldi, qolgan 25 foizi 3 yillik muddatda sotib olinadi. Shu sanadan boshlab Ipoteka bank rasman OTP Bank Grup a'zosi ga aylandi.

Davlat banklarini xususiy lashtirish orqa-

li bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida xususiy banklar aktivlari ulushini 60 foizgacha oshirish natijasida bank sektorida davlatning yuqori darajadagi aralashuvi kamayadi. Menejment va ta-vakkalchiliklarni boshqarish sifati, moliyaviy xizmatlarning ommabopligi ortadi, iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikning past darajasi kabi bank sektorini iqtisodiy yangilanishlar va jamiyat ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammolar bartaraf etiladi.

Shuningdek, bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalari, moliyaviy texnologiyalar keng joriy etiladi, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'siri kamaytiriladi.

- 2024-yil 1-iyuldan barcha kreditlar (mikroqarzarlar) uchun qarz beruvchilarga mijozlarining qarz yuki 60 foizdan oshib ketmaslik talabi qo'yilgan. 2025-yildan bu ko'rsatkichni 50 foizga pasaytirish belgilangan. Bu nimani anglatadi?

- Mikromoliyalashtirish sohasini tartibga solish bo'yicha xalqaro tajriba aholi va tadbirkorlik subyektlarining mikromoliyaviy xizmatlarga o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun kredit tashkilotlarining salohiyatini oshirish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu sababli mikromoliyalashtirish qonunchiligini yaxshilash, uning eng yaxshi amaliyotlarini, shu jumladan, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirish, aholida haddan tashqari qarz yuki shakllanishining oldini olish zarur. Aholining moliyaviy savodxonligini, moliyaviy ommaboplikni oshirish va mazkur xizmatlar iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish, respublikada mikromoliyalashtirish sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha ishlarning hozirgi bosqichdagi dolzarb yo'nalishlar bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2019-yil 28-sentabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Qarz oluvchi jismoniy shaxslarning qarz yukini tartibga solish to'g'risidagi" nizomning 10-bandiga asosan, qarz beruvchi tomonidan kredit (mikroqarz) ajratishda jismoniy shaxsning qarz yuki ko'rsatkichi:

2024-yil 1-iyuldan 2025-yil 1-yanvargacha qadar 60 foizdan;

2025-yil 1-yanvardan boshlab 50 foizdan oshmasligi ko'rsatib o'tilgan.

- O'zbekistonga Islom moliyasini jalb qilish borasida qanday choralar ko'rilmogda va buning samarasi qanday bo'ladi?

- Bugungi kunda 12 ta bankda, xususan, "Agro-bank", "O'zsanoatqurilishbank", "Mikrokreditbank", "Ipak yo'li bank"da xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha kredit liniyalari hisobidan muboraha xizmatlari ko'rsatilib kelin-yapti.

Bundan tashqari, "Trastbank" huzuridagi "Trast muomalat" MChJ tomonidan islomiy lizing, ya'ni ijara va muboraha - nasiyaga savdo operatsiyalari, "Hamkor-bank" tomonidan ham islomiy lizing xizmatlari ko'rsatilmoqda. Shuningdek, bazaviy qonunlar 2024-yilda yakunlan-ga yetkazilsa, qolgan banklarda ham bu kabi xizmatlar ommalashtirishga sharoit yaratiladi.

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish maqsadida "Ipak yo'li bank"iga Islom taraqqiyoti korporatsiyasi bilan moliyaviy hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Ko'p o'tmay, Islom taraqqiyoti korporatsiyasi O'zbekistondagi 6 ta institut: "Kapitalbank", "Asakabank", "Turonbank", "Hamkorbank", "O'zsanoatqurilishbank", "Asia Alliance bank" bilan shar'iy-moliyaviy masalalar bo'yicha shartnoma imzoladi.

O'ktam XUDOYBERDIYEV suhbatlashdi.



Sabr qilgan hammasiga erishadi

Oqdaryo tumani Olchintepa mahallasida bir oila bor. Xonadon bekasi Hurriyat Xoliqova nogironligi bo'lsa-da, sog'lom ayollardan qolishmaydi. U turmush o'rtog'i Toyir Mamarasulov bilan baxtli hayot kechirib kelyapti.

- Olchintepada tug'ilib o'sdim va shu mahallaga turmushga chiqdim, - deydi H.Xoliqova. - Umr yo'ldoshim yaxshi inson. Yetti muchasi sog'lom bo'lsa-da, hayotning achchiq-chugchini men bilan birga to'tib kelaypti. Uyim-joyim deydi. Farzandlariga juda mehribon.

Ularning ikki nafar qizi bor. Har ikkala farzandning ham mutolaaga, ilm olishga qiziqishi baland.

- El qatori ro'zg'or tebratib kelyapman, - deydi Toyir Mamarasulov. - O'zim serfarzand oilada katta bo'lganman. Ota-onam dalada mehnat qilib, qiyinchilik bilan bizni katta qilishdi. Oliy o'quv yurtida o'qish nasib qilmadi, ammo farzandlarimni o'qitaman, deb niyat qilib yurardim. Mana, orzuimga qisman erishdim. Katta qizim talaba - O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti biologiya fakultetida kontrakt asosida o'qiydi. Birinchi bosqichni tamomladi. Qoramollarimiz bor. Bir novvos boqib, qizimning kontrakt pulini to'ladim. Dehqonchilikdan daromad qilamiz. Davlatdan kontrakt uchun kredit olishga ham ehtiyoj yo'q. Ikkinchi qizim maktabda 9-sinfga o'tdi. Nasib bo'lsa, endi uning ham repetitorga qatnashi uchun sharoit yaratib bermoqchiman. Ikkala qizimning ham o'qishga qiziqishi baland.

- Hayotimdan nolimayman, - deydi H.Xoliqova. - Boriga shukur qilib yashayman. Bundan bir necha yil avval mahalla faollari Ikkinchi sektorda ehtiyojmandlarga bir million so'mdan beryapti, deb meni ham taklif qilishdi. Ro'yxatda bor ekanman, o'sha paytda moddiy yordam berilgandi.

- Davlatga hech qanday arzimiz yo'q, - deydi Toyir aka. - Bor imkoniyatdan unumli foydalanyapmiz. Dalada, fermer xo'jaligida suvchi bo'lib ishlaypti. Hovlida og'irroq yumushlarni o'zim qilaman, mayda-chuyda ishlar ayolimdan ortmaydi. Masalan, tomorqada yer ag'darib, yo'yasini olib, ishga ketaman. Ekin-tikin ishlarini o'zi qiladi.

Bo'sh vaqtimda g'isht quydim va imoratlarimga ishlatdim, 10 mingtasini qo'shnilarga pulladim. Donasini ming so'mdan sotgan bo'lsam, 10 million so'm daromad qildim.

Bu oila 15 sotixlik tomorqadan yiliga 2-3 marta foydalanarkan. Birinchi ekinga loviya ekib, 500 kilogramm hosil olgan. Kilogramini 16 ming so'mdan sotib, 8 million so'm daromad qilgan.

- Qoramollarning go'ngidan ham unumli foydalanishga harakat qilamiz, - deydi xonadon bekasi. - Tap-pi-tezak qilamiz, tomorqada o'g'it sifatida foydalanamiz. Kimyoviy o'g'it ishlatmaymiz. Shuning uchun bo'lsa kerak, yerimiz unumdor. Yiliga 15-16 million so'mlik hosil olamiz.

Ular turmush qurganiga 20 yil bo'ldi. Shuncha vaqtdan beri bir-birini ardoqlab, ahil-inoq yashab kelyapti.

- Ayolim o'zini nogiron his qilmasligi uchun unga imkoniyatlar yaratib berishga harakat qilaman, - deydi oila boshlig'i. - Qishloqda yashasak ham uyda shahar sharoiti mavjud. Issiq suv, sovuq suv, gaz, hammom.

Shuncha vaqt deganda oilamiz haqida lavha tayyorlash uchun birinchi marta muxbirlar keldi. Bu ham tinch-totuv, ahil-inoq yashayotganimizdan bo'lsa kerak. Shukurki, yo'qdan bor qilib kelyapmiz. Qimirlagan qir oshar deydi-ku! Sabr bilan hammasiga erishish mumkin ekan.

To'liqin SIDDIQOV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

Yirik gidrotexnika inshootlari sugʻurtalanadi

Vazirlar Mahkamasining joriy yil 30-iyuldagi 457-sonli qarori bilan gidrotexnika inshootlaridan foydalanish davrida favqulodda vaziyat oqibatida yetkazilgan zararni qoplash tartibi tasdiqlandi.

Hujjat bilan gidrotexnika inshootlaridan foydalanishda avariya vaziyati yuzaga kelishi oqibatida fuqarolarning mol-mulki, sogʻligʻi, shuningdek, atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun foydalanuvchi tashkilotlarning fuqarolik javobgarligini sugʻurtalash tartibi, gidrotexnika inshootlaridan foydalanishda favqulodda vaziyat oqibatida aholining hayoti va sogʻligʻiga hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga yetkazilgan zarar miqdorini

hisoblash tartibi belgilandi. Oʻz navbatida fuqarolik javobgarligini sugʻurtalash lozim boʻlgan gidrotexnik obyektlar roʻyxati tasdiqlandi. Unga koʻra, sugʻurta shartnomasi gidrotexnik obyektlardan foydalanuvchi tashkilotning tashabbusi bilan sugʻurtalovchi tomonidan belgilangan shaklda rasmiylashtiriladi. Zarar miqdorini baholash Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish boʻyicha hukumat

komissiyasi yoki hududiy komissiyalar tomonidan aniqlanadi. Fuqarolik javobgarligi sugʻurta qilinadigan gidrotexnika inshootlari roʻyxatiga Samarqand viloyatidagi Kattaqoʻrgʻon, Toʻsunsoy, Qoratepa, Qorasuv, Oqdaryo, Sabirsoy, Kamongaron, Oqchabsoy suv omborlari kiritilgan. Akbar AZIMOV, viloyat “Suvxoʻjaliknazorat” inspeksiyasi bosh mutaxassisi.

Fuqaro oila aʼzolari kasal ekanligi, ularni parvarishlash uchun kasallik varaqasini ochirib, ishxonasiga berganida ish beruvchi uni qabul qilmaganligini aytib murojaat qildi. Savol tugʻiladi, bunday vaziyatda sogʻlom inson ham ishdan qolishi mumkinmi? Umu-man, kasallik varaqasi kimlarga beriladi? Quyida shu masalani huquqiy jihatdan koʻrib chiqamiz.

Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirining 2667-son buyrugʻiga muvofiq, kasallik va shikastlanganlik boʻyicha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yoki mehnatga layoqatsizlik maʼlumotnomasi berish huquqiga ega. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik besh kalendar kunidan oshganda, varaqa va maʼlumotnomaning muddati davolovchi shifokor va boʻlim mudiri tomonidan har safar oʻn kalendar kundan ortiq boʻlmagan muddatga uzaytiriladi. Qonunchilimizga muvofiq, oilaning betob aʼzosini parvarishlaganlik boʻyicha mehnatga layoqatsizlik varaqasi va mehnatga layoqatsizlik maʼlumotnomasi ham berilishi mumkin. Bunda ambulatoriya sharoitida parvarishga muhtoj boʻlgan oʻn toʻrt yoshdan katta bemorni parvarishlash uchun yetti kalendar kunidan oshmagan muddatga mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi. Ushbu holatda mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor bilan birga yashash yoki yashamasligi hamda mehnat taʼtilida ekanligidan qatʼi nazar, bemorning

Oila aʼzosi kasal xodim kasallik varaqasi ochirishi mumkinmi?

Ambulatoriya sharoitida davolanishda davolovchi shifokor yakka oʻzi besh kalendar kunigacha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yoki mehnatga layoqatsizlik maʼlumotnomasi berish huquqiga ega. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik besh kalendar kunidan oshganda, varaqa va maʼlumotnomaning muddati davolovchi shifokor va boʻlim mudiri tomonidan har safar oʻn kalendar kundan ortiq boʻlmagan muddatga uzaytiriladi. Qonunchilimizga muvofiq, oilaning betob aʼzosini parvarishlaganlik boʻyicha mehnatga layoqatsizlik varaqasi va mehnatga layoqatsizlik maʼlumotnomasi ham berilishi mumkin. Bunda ambulatoriya sharoitida parvarishga muhtoj boʻlgan oʻn toʻrt yoshdan katta bemorni parvarishlash uchun yetti kalendar kunidan oshmagan muddatga mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi. Ushbu holatda mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor bilan birga yashash yoki yashamasligi hamda mehnat taʼtilida ekanligidan qatʼi nazar, bemorning

oila aʼzolari yoki qarindoshlaridan biriga beriladi. Ambulatoriya sharoitida parvarishga muhtoj boʻlgan oʻn toʻrt yoshga yetmagan bemor bolani parvarishlash uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi uning onasiga oʻn toʻrt kalendar kunidan oshmagan muddatga beriladi. Ona boʻlmagan yoki betob boʻlganda, mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor bilan birga yashash yoki yashamasligidan qatʼi nazar, boshqa oila aʼzolariga ham berilishi mumkin. Ambulatoriya sharoitida oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan bolaning parvarishga muhtojlik davri oʻn toʻrt kalendar kunidan oshganda, bola sogʻaygan yoki surunkali kasallikning remissiya davriga oʻtganga qadar bemor bolani parvarishlaganlik boʻyicha mehnatga layoqatsizlik maʼlumotnomasi beriladi. Ushbu holatda bolaning oldingi kasalligiga bogʻliq boʻlmagan yangi kasallik yuzaga kelsa yoki oilaning boshqa farzandi kasal boʻlib qolsa ham umumiy asoslarda mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtiriladi. Bola

statsionarga yuborilganda, mehnatga layoqatsizlik varaqasi yoki bemor bolani parvarishlaganlik boʻyicha mehnatga layoqatsizlik maʼlumotnomasi bola statsionarga qabul qilingan kundan yopiladi. Agarda bola statsionardan chiqqandan keyin uning parvarishga muhtojligi davom etsa, statsionarga qabul qilingan kunga qadar berilgan varaqaning kunlari cheirilgan holda mehnatga layoqatsizlik varaqasi yoki bemor bolani parvarishlaganlik boʻyicha mehnatga layoqatsizlik maʼlumotnomasi beriladi. Aytish joizki, oilada bir vaqtning oʻzida ikki va undan ortiq oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan bola kasallikka chalinisa, ularni ambulatoriya sharoitida parvarish qilish boʻyicha faqat bitta mehnatga layoqatsizlik varaqasi yoki maʼlumotnoma beriladi. Oilada ikki va undan ortiq oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan bola navbatma-navbat kasallikka chalinisa, tegishli hujjatlar ularning har biri boʻyicha alohida beriladi. Agar birinchi bolaning kasalligi davrida boshqa bola kasallikka chalinisa, keyingi bolani parvarish qilish boʻyicha mehnatga layoqatsizlik varaqasi birinchi bola uchun berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi yopilganidan keyin, ushbu varaq boʻyicha mos tushgan kunlar chiqarib tashlangan holda berilishi kerak. Nodir OTAMURODOV, Jomboy tumani yuridik xizmat koʻrsatish markazi boshligʻi.

FAMILIYA YOKI ISMNI OʻZGARTIRISHNING OQIBATI QANDAY?

Oʻzbekiston Respublikasi Oila kodeksining 227-moddasida fuqaroning familiya, ism yoki ota ismini oʻzgartirishning huquqiy oqibatlari belgilangan. Keling, bu jarayonni batafsilroq koʻrib chiqamiz.

ER XOTINIDAN FAMILIYANI OʻZGARTIRISHNI TALAB QILISHGA HAQLIMI?

Oʻzaro qonuniy nikohda turgan er yoki xotindan birining familiyasi oʻzgartirilishi ikkinchisining ham familiyasi oʻzgarishiga sabab boʻlmaydi. Masalan, er-xotin nikohdan sud tartibida ajrashganda, xotin oʻzining nikohdan oldingi familiyasiga qaytishi mumkin va bu oʻrinda familiya oʻzgarishi kuzatiladi. Bu vaziyatda er-xotin biri ikkinchisidan familiyani oʻzgartirishni talab qilishga haqli emas. Bundan tashqari, ota-onalar yoki ulardan birining familiyasini oʻzgartirganligi ularning voyaga yetgan bolalarining familiyasi oʻzgarishiga sabab boʻlmaydi.

VOYAGA YETMAGAN FARZANDI BOR OTA-ONA FAMILIYASINI OʻZGARTIRGANDA...

Ota-onalardan har ikkalasining familiyasi oʻzgartirilishi 16 yoshga toʻlmagan bolalar familiyasining ham oʻzgartirilishiga sabab boʻladi. Agar ota-onadan biri familiyasini oʻzgartirsa, ularning voyaga yetmagan bolalarining familiyasini oʻzgartirish masalasi ota-onalarning kelishuviga binoan, bunday kelishuv boʻlmaganda esa vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

ERINING FAMILIYASIGA NIKOHDAN KEYIN OʻTILSA-CHI?

Agar nikohga kirish paytida oʻzining nikohgacha boʻlgan familiyasini saqlab qolgan shaxs keyinchalik erining familiyasini qabul qilsa, shuningdek, nikohga kirish paytida qabul qilgan familiyasini nikohgacha boʻlgan familiyasiga oʻzgartirsa, u holda oʻzgartirish faqat nikoh tuzilganligi haqidagi dalolatnoma yozuviga kiritiladi. Agar nikohdan ajratilgandan keyin nikohdagi familiyasini saqlab qolgan shaxs uni nikohgacha boʻlgan familiyasiga oʻzgartirsa, u holda oʻzgartirish faqat nikohdan ajralganlik haqidagi dalolatnoma yozuviga kiritiladi.

OTA OʻZ ISMINI OʻZGATIRSA...

Ota oʻz ismini oʻzgartirishi uning voyaga yetmagan bolalarining ota ismi oʻzgarishiga olib keladi. Voyaga yetgan bolalarning ota ismi faqat ularning arizalariga koʻra oʻzgartiriladi. Bu oʻrinda voyaga yetgan bola oʻz ota ismini oʻzgartirish yoki oʻzgartirmaslik masalasini oʻzi hal qiladi.

Viloyat adliya boshqarmasi.

REKLAMA, EʼLONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va eʼlonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DAʼVOLAR BOʻLSA...
Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Ergashev Aslidinga (2014-yil 10-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.
Manzil: Jomboy tumani Saroy koʻchasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Amriddinov Sirojiddin Najmiddinovichga (2018-yil 19-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.
Manzil: Samarqand shahri Gulobod koʻchasi, 5-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan oʻgʻli notarial idorasida marhum Umarova Marxabo Ochilkulovnaga (2023-yil 22-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Davronov Mahmud Hasan oʻgʻli notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.
Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bagʻrikenglik koʻchasi, 4-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Sattarov Xamdani Sattarovichga (2024-yil 16-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.
Manzil: Jomboy tumani Saroy koʻchasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Salmonov Farxodga (2023-yil 3-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.
Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohkoʻchasi, 157-uy. Moʻljal: Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari boʻlimi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Joʻrayev Mubin Neʼmatjonovich notarial idorasida marhum Sultonova Oliyaga (2016-yil 28-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Joʻrayev Mubin Neʼmatjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.
Manzil: Samarqand shahri Abdulrahmon Soniy koʻchasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Aminjanov Musinga (2022-yil 30-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.
Manzil: Samarqand shahri Gulobod koʻchasi, 5-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Ulugov Musinga (2013-yil 28-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.
Manzil: Samarqand shahri Abdulrahmon Jomiy koʻchasi, 64-uy.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasida marhum Baratov Shokir Amirovichga (2023-yil 13-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.
Manzil: Narpay tumani “Salovot” MFY.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Mamirov Kaxramon Mansirovichga (2024-yil 9-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.
Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol koʻchasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Nasimov Sadriga (2022-yil 3-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.
Manzil: Samarqand shahri Gulobod koʻchasi, 5-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Samiyev Djalilga (1973-yil 24-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxoʻrlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini soʻraymiz.
Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim koʻchasi, 5/1-uy.

IJARAGA OLING VA FOYDALANING!

Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi quyidagi obyektni ijaraga beradi.

Ijaraga beruvchi:					
Nomi:	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasi				
Manzili:	Samarqand viloyati Samarqand shahri, Spitamen shohkoʻchasi, 157-“A” uy				
Telefon raqami:	+99890-505-56-49	Elektron pochta:	samarqand_markaz@davaktiv.uz		
Obyektni berish shartlari:					
Moddiy madaniy meros obyektlarini va ularga tutash hududlarni ularni obodonlashtirish va zarur holatda saqlash boʻyicha investitsiya majburiyatlarini olgan holda ijaraga berish					
1-obyekt	Alkogolli ichimliklar sotilmaydigan umumiy ovqatlanish shoxobchalari, hunarmandchilik markazkari				
Ijara obyekti toʻgʻrisidagi maʼlumotlar:					
Nomi	Manzili	Balandsa saqlovchi tashkilot nomi	Obyektning umumiy maydoni kv.m	Bino-inshoot maydoni kv.m	Hozirgi kundagi holati
1-obyekt Afrosiyob arxeologiya yodgorliklari	Bogʻi maydon mahallasi, Vohid Abdullayev koʻchasi	Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi	800	-	Qoniqarli
Restavratsiya-tiklash ishlarini olib borish, uni saqlash, obodonlashtirish va undan foydalanish shartlari:					
Madaniy meros obyektiga tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari asosida maxsus litsenziyaga ega loyiha va pudrat tashkilotlarini jalb qilgan holda restavratsiya va asrashga doir konservatsiya hamda obodonlashtirish ishlarini olib borish lozim					
Moddiy madaniy meros obyektlari davlat kadastriga kiritilgan kadastr axboroti:					
1-obyekt	14:16:01:01:14:9909 kadastr raqami bilan davlat roʻyxatidan oʻtgan				
Investitsiya majburiyatlarining eng kam miqdorlari:			Obyektni ijaraga olish muddati:		
1-obyekt	1,5 mlrd. soʻm	1-obyekt		30 yil	

Eslatma: Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-martdagi 53-sonli qaroriga asosan, roʻyxatlar ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilingan kundan boshlab bir oy (30 kun) mobaynida talabgorlarning tanlova qatnashish uchun buyurtmalari qabul qilinadi. Belgilangan muddat tugaganidan soʻng talabgorlarning tanlova qatnashish uchun buyurtmalari qabul qilinmaydi.
Bundan tashqari, eʼlonda belgilangan muddatda buyurtmanomalar kelib tushmaganda, mazkur obyekt boʻyicha buyurtmanomalar kelgusi davr uchun har oʻn kunlik davriylikda qabul qilinadi.

DAVLAT MULKI OBYEKTLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MARKAZI SAMARQAND VILOYAT HUDUDII BOSHQARMASI.

BEKOR QILINADI
Sotuvchi “Goʻzal” MCHJ nomidan jamiyat direktori Tolibov Sherzod Muxtorovich va sotib oluvchi Gulyamova Moxira Gulyamovnalari oʻrtasida Samarqand shahri Turkiston koʻchasi, 169-“A” uy, 44-xonadon uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shugʻullanuvchi notarius Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich tomonidan 2022-yil 1-avgustda tasdiqlanib,

202201798003618 raqam bilan reestr-ga kiritilgan, Ksh № 089765 SA blankada tuzilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi.

Samarqand shahridagi “VOS-TOCHNIY SAD KABOBCHI” qoʻshimcha masʼuliyatli jamiyatining (STIR: 309527246) dumaloq muhri yoʻqolganligi sababli bekor qilinadi.

Oʻzbekiston sogʻliqni saqlash xodimlari kasaba uyushmasi Samarqand viloyati kengashi viloyat ruhiy kasalliklar shifoxonasi rahbari
Akmal AHROROVning vafoti munosabati bilan marhumning oila aʼzolari va yaqinlari taʼziya izhor etadi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda taʼlim sohasida koʻplab islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, oʻqituvchini qayta tayyorlash, uzluksiz kasbiy rivojlantirish, malakasini oshirish ham qator oʻzgarishlar davrini bosib oʻtdi. Shunday boʻlsa-da, kelajak taʼlimiga tayyorgarlik nuqtai nazaridan tizimni qayta tahlil qilish va uni yangi bosqichga olib chiqishga ehtiyoj sezilmoqda.

Malaka oshirish eskicha tartibda oʻtadimi?



Bunday ehtiyoj va talab oʻz-oʻzidan jamiyat boshqa-ruvida oʻzgarishlarni yuzaga keltiradi. Shu kunlarda oʻqituvchilar orasida “maktab oʻqituvchilarining malaka oshirishi yana besh yillik davriylikka qaytibdi”, “2021-yilda oʻqituvchilarining malaka oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori yuqoridagi gap-soʻzlarga turtki boʻldi. Yangi qarorni izohlashdan avval sal ilgari-roqqa, yaʼni 2021-yil 25-yanvarda qabul qilingan “Maktabgacha va maktab taʼlimi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qoʻllab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”-gi qaror va uning doirasida amalga oshirilgan ishlarga toʻxtalsak.

Hozirgi vaziyatni tahlil qilish va munosabat bildirishdan avval tizimning bir vakili sifatida taʼlim sohasidagi sifat oʻzgarishlari, olib borilgan islohotlarning ijobiy va salbiy jihatlari tezda namoyon boʻlmasligini, vaqt talab qilishini taʼkidlamoqchimiz. Shuningdek, har qanday oʻzgarish uchun oʻqituvchi ham tayyor boʻlishi kerak. Qiyoslash va rivojlanish uchun boshdan oʻtkazilgan tajriba albatta, kerak.

Oldingi qaror bilan malaka oshirish uzluksiz kasbiy rivojlantirishga aylandi va bundagi vazifalarni bajarish katta ishonch bilan boshlangan edi. Shunga koʻra, umumtaʼlim maktablari oʻqituvchilarining malakasini oshirish 5 yilda bir marta 144 soat (rahbar xodimlar 3 yilda) davriylikdan

uzluksizlikka, yaʼni har yilda 36 soatdan malaka oshirishga (rahbar xodimlar 30 soatlikka) oʻtkazilgan edi. Respublikadagi barcha oʻqituvchilarni qamrab olish maqsadida “Uzluksiz kasbiy taʼlim” elektron platformasi yaratildi. Avvaliga tajriba sifatida boshlangʻich sinf oʻqituvchilarida sinab koʻrildi, keyinchalik barcha fan oʻqituvchilari uchun keng miqyosda joriy qilindi. Quvonarlisi, pedagog xodimlar haqidagi maʼlumotlar bir tizimga toʻplandi. Onlayn taʼlim, oflayn bilan tenglashtirildi, xolisan qaralganda, oʻqituvchilarga katta imkoniyat yaratildi.

Faqt bu yerda juda muhim boʻlgan bir tomon, yaʼni inson yaralgandan beri u muhtoj boʻlgan, uni oldinga boshlaydigan, harakat qildiradigan eng asosiy omil-yakunni baholash, malaka oshirish natijalariga koʻra ragʻbatlantirish deyarli sezilmas holatda qoldi. Faoliyatiga taʼsir qiluvchi aniq tartib, mezon va koʻrsatkichlar belgilab qoʻyilmadi. Shu bilan birga, jarayonda “Uzluksiz kasbiy taʼlim” elektron platformasida oʻqish bilan bogʻliq turli xil muammolar, baʼzan texnik nomukammallik, nosozlik uning atrofida gap-soʻzlar urchishiga, vaziyatlar paydo boʻlishiga olib kelganini inkor etib boʻlmaydi. Qisqacha aytganda, keyingi ikki yilda oʻrtirilgan tajriba malaka oshirish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini koʻrsatdi.

Bugun amaliyotga kiritilayotgan yangi qarorda oʻtgan davrdagi barcha tajribalar inobatga olingan va oʻqituvchini kelajak taʼlimini yaratishga tayyorlaydi, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Qarorda keltirilishi-cha, endi avvalgi tizimdagidek oʻqituvchi 5 yilda, rahbar xodimlar esa 3 yilda bir marta ishdan ajralgan holda malaka oshiradi, lekin uzluksiz oʻqish

davom etaveradi. Demak, bundagi ayrim oʻrinlar eski davrni eslatssa-da, butunlay yangicha tizim joriy qilinmoqda. Xoʻsh, bu qanday boʻladi? **Birinchidan**, oʻqituvchi bilimi va toifasiga mos boʻlgan dasturda oʻqiydi. Bu vazirlik – malaka oshirish muassasasi – taʼlim tashkiloti shaklidagi bogʻlanishda tashkil etiladi. **Ikkinchidan**, endi malaka oshirayotgan oʻqituvchining natijasi uning toifasiga hamda fani boʻyicha kasbiy sertifikatlanishiga taʼsir qiladi. **Uchinchidan**, malaka oshirish tizimi natijalarini baholashning yangi tartibi joriy etiladi va uning doirasida maktabgacha va maktab taʼlimi tashkilotlari xodimlari-ning faoliyat samaradorligini oshirishga alohida eʼtibor qaratiladi.

Toʻrtinchidan, oʻqituvchi endi har kuni oʻqiydi, mustaqil rivojlanish uchun izlanadi. Sababi, 2025-yil 1-yanvardan boshlab respublikadagi barcha umumiy oʻrta taʼlim maktablari “Kasbiy rivojlanish soati”, tayanch maktablarda “Kasbiy rivojlanish kuni” kabi malaka oshirishning yangi shakli navbatma-navbat joriy qilinadi. Bunda “ustoz oʻqituvchi tajribasi kamroq oʻqituvchini oʻqitadi” usulidan foydalaniladi. Toʻrtinchidan, oʻqituvchilarimiz xalqaro tadqiqotlarga tayyorlanishda qiyalishar edi, endi esa “Xalqaro tadqiqotlar markazi” tashkil etiladi. Beshinchidan, yuqoridagilarning barchasi uchun sharoit oʻta muhim. Endi malaka oshirish markazlarining ham, umumiy oʻrta taʼlim maktablarining ham moddiy texnik bazasi davlat dasturlari doirasiga kiritilib, zamonaviy uslub yaratiladi. Demak, amalga oshiriladigan rejalar va undan kutilayotgan ijobiy natijalar juda koʻp. Ushbu qarorda keltirilgan vazifalar soha rivojiga katta hissa qoʻshadi. Chunki avvalo, oʻqituvchini zamon talabiga moslashtirish, uni oʻqitish dunyodagi rivojlangan mamlakatlarning asosiy shiori, taraqqiyot poydevori boʻlib xizmat qilgan.

Aʼlamjon IBRAGIMOV, viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga oʻrgatish milliy markazi direktori, pedagogika fanlari doktori, dotsent.

Sut bilan kirgan jon bilan chiqadi

Yoxud tarbiya samaradorligini oshirishda oilaning oʻrni va vazifalari xususida

Bugungi globallashuv va integratsiyalashuv jarayonida yoshlarimiz maʼnaviy va mafkuraviy tahdidlar qurshovida yashashiga toʻgʻri kelmoqda. Ularni bunday tahdidlardan himoya qilishning muhim omillaridan biri yoshlar maʼnaviyatini yuksaltirish bilan bogʻliqdir.

Yoshlarda maʼnaviyatni yuksaltirish bevosita tarbiya jarayoniga bogʻliq. Tarbiya juda koʻp vosita va yoʻllar bilan amalga oshiriladi. Bular tarkibida oilaviy tarbiya muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun bugungi kunda maʼnaviyatni yuksaltirishda oilaning oʻrni toʻgʻrisida alohida toʻxtalishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Mamlakatimizda oila muqaddas hisoblanganligi uchun davlatimiz uning toʻlaqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratib berishi ham Asosiy qonunimizda oʻz aksini topgan.

Tarbiya samaradorligi oilaning funksiyalari orqali amalga oshiriladi. Zero, oila insoniyatning noyob evolyutsion kashfiyoti boʻlib u quydagi toʻrtta asosiy funksiyani bajaradi.

Reproduktiv funksiya bolaning sogʻlom holda dunyoga keltirilishi bilan bogʻliq. Agar bola sogʻlom boʻlmasa, tugʻma nogironlikni davolash oʻta murakkab kechadi. Bunday farzand oilaga ham, jamiyatga ham ogʻir yuk. Shu tufayli oilaviy muhitga bolaning sogʻlom tugʻilishi uchun faqat ona emas, hamma masʼul, deb qarash koʻnikmasini singdirish zarur.

Ekzistensial funksiya bolani jismoniy, maʼnaviy va ruhiy jihatdan sogʻlom qilib tarbiyalagan holda oʻstirishdan iborat. Bola dunyoga kelgandan keyin ham unga katta eʼtibor berilishi lozim. Aks holda, sogʻlom tugʻilgan bola toʻgʻri yondashilmaganligi tufayli zaif boʻlib ulgʻayishi mumkin. Shu tufayli unga yaratilgan sharoit ham, ovqatlanirishdan tortib, yashash rejimi ham bolalarning ulgʻayishiga mos boʻlishini taʼminlash kerak.

Ijtimoiylashuv funksiyasi har oilaning har bir aʼzosini nafaqat oʻzi, balki uni qoʻriqlab, tinchligini taʼminlab turgan Vatani va kindik qoni toʻkilgan tuproqni muqaddas bilib, unga munosib xizmat qiladigan boʻlishga mos tarbiyani shakllantirishni taqozo etadi. Chunki har bir inson maʼnaviyatida oʻz yurtiga sadoqat bilan xizmat qilish ruhiyati shakllangan

Keyingi 15-20 yil ichida insoniyat ilmiy-texnikaviy maydonda shu qadar taraqqiy etib ketdiki, oqibatda hayot haqidagi tushunchalar va odamlar oʻrtasidagi munosabatlar shakli-shamoyili oʻzgarmoqda.

Telefon ixtiro qilinganiga ham qariyb 150 yil boʻldi. Eʼtiborlisi, birinchi telefon ixtirosiga olingan patent «tarixdagi eng qimmat patent» deb nom olgan. Oradan bir necha yil oʻtib, telefon odamlarining kundalik turmush tarziga kirib kela boshladi. Uzoqni yaqin qilish, xabarlarini tezkor yetkazish jihatidan telefonning boshqa aloqa vositalaridan koʻra afzaligi koʻp edi. Natijada u hayotimizning ajralmas bir qismiga aylandi.

Ammo achinarlisi, telefon insonlarni bir-biridan uzoqlashtirib qoʻydi. Zero, bugun aynan ana shu aloqa vositasi sabab yuzma-yuz koʻrishishlar kamayib ketdi. Yaqinlardan xabar olish, bayram bilan tabriklash, toʻy-maʼrakalarga taklif qilish, hatto maslahatlar ham masofadan amalga oshiriladigan boʻlib qoldi. Oqibatda insonlar orasidagi mehr-oqibat shashti soʻnib boryapti. Baʼzi farzandlar kekka ota-onalarini haftalab, oylab ham yoʻqlamaydigan boʻlib qolishgan.

Telefondan foydalanish madaniyatini qachon oʻrganamiz?

Fikrimning tasdigʻi sifatida jonli misol keltiram. Bir doʻstimming yolgʻiz oʻgʻli bor, Toshkentda ishlaydi. Ota-onasini koʻrgani Samarqandga yilda bir-ikki marta keladi. Oʻrtogʻim oʻgʻlining ishi koʻpligi uchun qishloqqa kam kelishini va ora-sirada telefonda gaplashishini aytadi. Yaqinda doʻstim betob boʻlib, choyxonaga kelmay qoʻydi. Undan hol soʻragani uyiga bordim.

- Tuzalib qoldingmi, oʻgʻling kelmadi-mi koʻrgani, - soʻradim oʻrtogʻimdan. - Yaxshiman, biroq shamollabman dedim, xavotir olmasin, ishidan chalgʻimasin deb. Telefonda koʻrib gaplashib turibman, ammo uni juda sogʻinyapman. Oʻzi shu telefon qurgʻur boʻlmaganda, bolam meni koʻrgani koʻproq keldimi?..

Faqt oʻzim guvoh boʻlgan bitta holatni misol keltirdim. Bularga oʻxshagan ota-onalar ertaga farzandlaridan nimani kutishi mumkin? Afsuski, bugun keksalar ham farzandlarini sogʻinganalarda eshikka emas, telefonga



koʻz tikib oʻtiradigan boʻlib qolishgan. Buning asosiy sababi esa telefondan foydalanish madaniyati qon-qonimizga singib ketmoqda. Bola yigʻlaganda, uni ovutishdan to ulgʻayganigacha gadjetlar orasida ulgʻaymoqda.

Hozir istalgan maktab oʻquvchisida qoʻl telefoni bor va vaqtining asosiy qismini undagi turli totalizator oʻyinlar va behayo materiallarga sarflayapti. Oʻylashimcha, maktab yoshidagi oʻquvchilarga telefonda foydalanishni cheklash kerak va dars jarayonida uning yaxshi-yomoni haqida oʻrgatilib, keyin foydalanishga ruxsat berilgani maqsadga muvofiq.

Turdi TURSUNOV, mehnat faxriysi.

Albatta, har birimiz atrofimizda insofli, diyonatli, sofdil va mehribon odamlar boʻlishini xohlaymiz. Umuman olganda, oʻzimiz ham vijdonli, fahm-farosatli boʻlishga intilishimiz lozim. Kundalik hayotimizdagi bizga duch keladigan odamlar haqiqatan ham shunday xislatlar egasi boʻlish-boʻlmasligini qayerdan bilish mumkin?

Hayot yoʻlimda oʻzini donishmand koʻrsatib, hatto nonni tashlamaslik boʻyicha aql oʻrgatmoqchi boʻlgan “bilagʻon”lar ham yoʻliqqan, biroq, keyinchalik aynan oʻsha odamning nonni bir emas, bir necha marta mogʻorlatib, keyin uni chiqindiga tashlab yuborganining guvohi boʻldim. Vaholanki, oʻtam va onam oilamizda ovqat yeb boʻlgandan keyin dasturxonni silkita turib, nima deb aytish kerakligini oʻrgatishgan. Nafaqat shu narsalar, oilamizda tugʻilgan chaqaloqlarga toʻrt

Farosatni befarosatdan oʻrgan...

Yoki soʻz va harakatlarimiz birovni noqulay ahvolda qoldirmasin

oyligidan boshlab qoʻlini koʻksiga qoʻyib salom berish va rahmat aytish oʻrgatilardi. Kattalar koʻziga tik qarash u yoqda tursin, ular yonida oʻtirganda iyak suymaslik, oyoqlarni yigʻib oʻtirish, oshni oʻng qoʻl bilan yeb, toʻkilgan guruchlarni chap qoʻl bilan terib olish va hatto eshik ochib-yopishgacha fahm-farosat bilan ish tutishimiz aytilib, yumushlarimizning qay biri savobga, qaysisi gunohga yozilishi uqitirib kelingan.

“Farosatni beforosatdan oʻrgan”, degan naql bor xalqimizda. Bunday odamlardan “oʻrnak” olib, ularga oʻxshamaslik uchun gapini oʻylab gapirishni, fikrlarini nazorat qilishni, suhbatdoshining yolgʻonchi yoki rost-goʻy ekanini ajrata olishni biladi. Garchi odamovidek tuyulsa-da, u gʻiybatdan nari yuradi, uning oʻzi yoki boshqa odamlar haqida yomon gap aytganini eshit-

maysiz. Farosat boshdan emas, yurakdan chiqadi.

Oqil xulq – bu sanʼat. Usta asboblari bilan ishlashni bilganidek, farosatli kishi soʻz bilan ishlashni va toʻgʻri harakatlarni tanlay biladi: baʼzan jim turadi, baʼzida daldal, maslahat beradi. Birovning koʻnglini ogʻritib qoʻymaslik uchun sabr-toqat bilan his-tuygʻularini boshqarib, shoshqaloq harakatlardan tiyladi.

Soʻzlar – oʻzlikning ifodasi, kishining asl koʻrinishi soʻzlarida yashiringan boʻladi deyishadi. Hech oʻylab koʻrganmisiz, natijasi haqida oʻylamasdan, biz har kuni qancha soʻz aytib, qancha harakatlarni amalga oshiramiz. Bu harakatlar insonga shikast yetkazishi va agar biz ushbu “qurol”dan ehtiyohtkorlik bilan foydalanmasak, soʻz hatto oʻldirishi mumkin.

Afsuski, kundalik hayotda yomon soʻzlar aynan

[➡ Mulohaza uchun mavzu](#)

oʻsha, oʻzini farosatli deb koʻrsatishga harakat qilayotganlar tomonidan ataylab birovni kamsitish maqsadida aytilayapti. Bunday johillar inson obroʻsi bir soʻzga bogʻliq ekanini, aytdan soʻzi esa kelajakda inson oʻzga taqdirini belgilashini bilganida balki bunday qilmagan boʻlarmidi?!

Nazarimda, har qanday vaziyatda xotirjamlikni saqlay bilish, fahm-farosatli, shu bilan birga, yumshoq va sezzir boʻlish uchun insonga ichki kuch kerak. Bu kuchga avvalo, ota-ona ibrat, taqvodorlik, Yaratganga ixlos va farosat ila erishiladi. Bu xislatlarning barchasi maʼnaviy rivojlanishga hissa qoʻshadi va har qanday sinovlardan munosib oʻtishga imkon beradigan insonning ichki magʻzini mustahkamlaydi. Soʻzlarimiz va harakatlarimiz birovga noqulaylik tugʻdiradiligi uchun ehtiyoj boʻlaylik, ularni faqat qutqarish uchun ishlataylik.

Bahora MUHAMMADIYEVA.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta Oʻzbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan roʻyxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 670 nusxada chop etildi. Buyurtma 433. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA EʼLONLAR: (66) 233-91-56

BOʻLIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulugʻ Tursunov koʻchasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter boʻlimida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen koʻchasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

Gʻ.HASANOV.

Navbatchi:

X.ERNAZAROVA.

Sahifalovchi:


B.ABDULLAYEV.



Saytimizga oʻtish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

Gazetaning navbatdagi soni 2024–yil 24-avgust, shanba kuni chop etiladi.

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda